

OLIY O'QUV YURTIDA TA'LIM JARAYONINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI

Xodjayev Nodir Sadirovich

Tashkent International University of Education

E-mail: t406@tiue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, boshqaruvni optimallashtirish va yanada takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan. Ushbu masalalarning dual ta'lim tizimi bilan uyg'unligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, dual ta'lim, ta'lim tizimi, boshqaruv, modernizatsiyalash.

ISSUES OF MODERNIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

Khodjaev Nodir Sadirovich

Tashkent International University of Education

E-mail: t406@tiue.uz

Abstract. In this article, the author of the article analyzed the aspects of modernization of education, its optimal development and improvement. The harmony of these issues with the Dual education system is revealed.

Keywords: education, higher education, dual education, education system, management, modernization.

Oliy o'quv yurtida (OO'Yu) ta'lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarish masalalari o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan dolzarb bo'lib kelgan. Oxirgi yillarda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyovning bir qator Farmonlari yurtimizda mazkur masalaga katta e'tibor berilayotganligi buning yorqin dalilidir, chunki xalq xo'jaligining zamonaviy texnologiyalar vsosida rivojlanishi yuqori malakali mutaxassislariga bog'liqdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashdek ma'suliyatli vazifani bajarishga OO'Yu pedagogik kadrlarining salohiyati, uning moddiy-texnik bazasining zamona viy o'qitish vositalari bilan ta'minlanganligi va eng muhim omillaridan biri o'quv yurti rahbariyatining kreativligi, ya'ni doimo o'zgarib turuvchi bozor iqtisodiyotiga moslashgan holda yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqish va ularni joriy etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga hozir javobligidir. Ta'lim jarayoni- ni modernizatsiyalash deganda biz quyidagi asosiy mummolarni hal etili- shini ko'zda tutamiz:

- universitet salohiyatini belgilovchi kompetentli professor-o'qituv chilar tarkibi;
- universitetning moddiy-texnik bazasi zamonaviy axborot kommunika sion texnologiyalar (AKT) va vositalar bilan jihozlanganligi;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etilganligi;
- ta'lim jarayoniga dual texnologiyani qo'llash masalalari bilan bog'liq bo'lgan mummolarni hal qilinayotganligi;
- “Aqli auditoriyalar” da Elektron-ta'limni joriy etilishi;
- professor-o'qituvchilarning AKT savodxonligi;
- talabalarni mustaqil bilim olishga undovchi ta'lim jarayonini tashkil etilishi;

— talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi tadbirlar rejasini ishlab chiqilganligi va ularni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan masalalarni hal qilish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

I. Ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha ishchi guruh

1.1 Talabalar bilan ishlash guruhi quyidagi tashkiliy masalalarni hal qilinishini ko'zda tutishi lozim:

TIJ (SNO-studencheskoye nauchnoye obshestvo) — talabalar ilmiy jamiyatini;

TKB (SKB – studencheskoye konstruktorskoye byuro) — talabalar konstruktorlik byurosini tashkil etilishini;

TO‘TI (UIRS – uchebno issledovatel’skaya rabota studentov) — talabalarni o‘quv tadqiqot ishlarda ishtirok etishlarini;

Sport to‘garaklari faoliyatini rivojlantirish;

Talabalarni ilmiy loyihalarga jalb qilishni;

Talabalar konferentsiyalarini tashkil etishni;

Turli yo‘nalishlarda ko‘rik-tanlovlar tashkil etishni.

1.2. Universitet axloq kodeksini ishlab chiqish:

O‘qituvchi va xodimlar uchun;

Talabalar uchun;

Ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan turli tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi.

II. Akademik ishlar bo'yicha ishchi guruh

2.1. Ilmiy izlanishlar:

1. Ilmiy loyihalarni rejalashtirish;

2. Ilmiy maqolalar yozish;

3. Konferentsiyalarga tezislar yozish, ularni o‘tkazish;

4. Turli seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etish va ularni o‘tkazish.

2.2. O‘quv-uslubiy ishlar:

Monografiyalar, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash;

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish, rejalashtirish va joriy etish;

Ilmiy-texnik kengashning strategik rejasini ishlab chiqish.

III. Strategik rivojlanish va xalqaro hamkorlik bo'yicha ishchi guruh:

Universitet ta'lim jarayonining strategik rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish;

Universitet reytingi bilan bog‘liq tashkiliy, ilmiy, o‘quv-uslubiy ishlarni tashkil etish;

Universitetning biznes vakillari va davlat hammda xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish;

Universitetning xalqaro TOP-1000 reytinglariga kirgan xorijiy OTM lar bilan hamkorlikni tashkil etish;

Universitetga xorijiy grantlarni jalb etish.

IV. Tayyorlangan o‘quv-uslubiy va ilmiy ishlarni chop etdirish

Professor-o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy va ilmiy ishlarni chop etdirishning asosiy maqsadi ularni o‘z ustilarida muntazam ilmiy-uslubiy yo‘nalishda ijod qilishlariga, yosh pedagoglarning salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu Universitetni xalqaro TOP-1000 reytinglariga kirishini belgilovchi muhim omildir. Undan

tashqari bu ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy loyiha larni ishlab chiqish va ularni tatbiq etish jarayonida qobiliyatli, ilmga chanqoq talabalarni ilmiy ishlarda qatnashishiga jalb etish imkonini tug'diradi.

Talabalarni mustaqil fikrlash, ilmiy izlanishlarga jalb qilishning samarali (effektiv) usullari quyidagilardir:

1. TIJ — talabalar ilmiy jamiyati (TIJ) to'garagini tashkil etish, unda talabalar o'zlari qiziqqan yo'nalishlardagi to'garaklardi ustozlari bilan hamkorlikda konkret mavzuga big'ishlangna tadqiqot ishlarini olib boradilar;

2. TKB — talabalar konstruktorlik byurosi (TKB) bunday byuroda talaba konkret konstruktorlik –muammolari bilan shug'ullanadilar, masalan robototexnika.

3. TO'TI — talabalarni o'quv tadqiqot ishlarda (TO'TI) ishtirok etishlari, ularni o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishga jalb qilish, ushbu jarayonda talaba pedagog bilan hamkorlikda uslubiy qo'llanmalar yaratishda innovatsion teznologiyalarni qo'llash usularini kengroq tushunib oladi.

4. Talabalar ilmiy konferentsiyalarini Universitet miqyosida, boshqa OTM lar bilan hamkorlik doirasida zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yo'nalishlarga bag'ishlangan konferentsiyalar uyushtirish va ularni o'tkazish, bunday uchrashuvlar talabalarning o'z kasblariga bo'lgan qiziqishlarini yanada yuksaltiradi.

5. Turli yo'nalishlarda ko'rik-tanlovlar tashkil etish va ularga talabalarni jalb etish.

6. Sport to'garaklarini tashkil etish va ularda turli musabaqalarni uyushtirish.

Universitet axloq kodeksini ishlab chiqish deganda biz quyidagilarni ko'zda tutamiz:

1. O'qituvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, tajriba almashish va eng muhimi korruptsiya oldini olish;

2. Talabalar uchun Universitet tartib-qoidalariga amal qilishlari;

3. Ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan turli tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi.

Yuqorida keltirilgan masalalar optimal ravishda hal qilinsa zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobatbardash yuqori malakali, o'z Vatanini sevuvchi mutaxassislarni tayyorlashga kafolat berish mumkin bo'ladi. Universtitet bitiruvchilari konkret ish joyi bilan ta'minlanadilar, chunki ular Universitet bilan uchtomonlama — univer sitet, korxonona (yoki firma) va ota-onalar imzolagan shartnoma asosida ta'lim oladilar.

Ma'lumki ta'lim jarayonini tashkil etishda uch tomonlama yutuqqa erishiladi bularga quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

— Universitet o'z hohishiga, qiziqishiga monand tanlagan kasbga muvofiq holda tabaga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar beradi;

— eng muhimi talaba o'zi istagan, intilgan kasbga ega bo'ladi;

— korxonona sinovdan o'tgan bitiruvchini o'z jamoasiga oladi, chunki bitiruvchi o'qish davomida ishlab chiqarish amaliyotini korxonaning sexlarida o'taydi, bunda u korxonadagi mavjud sharoitlar va xodimlar bilan yaqindan tanishadi, korxonona xodimlari esa bitiruvchi to'g'risida ma'lum bir xulosaga keladilar;

— davlat ijtimoiy muammoni ijobiy hal qiladi, chunki yoshlarni ish bilan ta'minlashning davlat rejalari bajariladi.

Dual texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi Universitetning korxonona bilan yuqori darajadagi hamkorligi amalga oshirilgandagina yuqori natija berishi mumkin, ya'ni tinmay o'zgarib borayotgan bozor iqtisodiyoti va korxonona talablariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyor lashda ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish (bunda nazariy ma'lumotlar 20-25%, amaliy mashg'ulotlar 75-80% ni tashkil etilishi)

ko'zda tutiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, yetuk bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobatbardosh yuqori malakaali mutaxassisni tayyorlashda ikkala tomon ham bab-barovar ma'sul hisoblanadi, bu talab uchtomonlama shartnomada ko'rsatib o'tiladi. Ya'ni nazariy bilimlar Univer sitetda, amaliy mashg'ulotlar esa (ustaxonalarda o'tkazilidigan mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti) korxonada sexlarida yoki korxonada maxsus ajratilgan ustaxonalar va jihozlar yordamida tashkil etiladi, ravshanki ushbu tarzda mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi va muddatlari ikki tomondan tasdiqlangan rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuni aytib o'tish joyizki bitiruv imtihonlari va bitiruv malakaviy ishlar mavzulari korxonada tomonidan tasdiqlanadi va korxonada xodimlari bu yakuniy nazorat komissiyalari a'zolari sifatida qatnashadilar. Albatta bunday ta'lim jarayoni Universitet pedagoglari va korxonada xodimlaridan yuqori ma'su- liyatni talab qiladi, zarur hollarda pedagoglar (Universitet laborato- riyalari amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi pedagoglar) va korxonada xodimlari (korxonada ishlab chiqarish amaliy mashg'ulotlarini olib boruvchi yetakchi korxonada mutaxassislari) o'z malakalarini oshirishlari lozim bo'ladi, ularga mos ravishda malaka oshirish kurslari tashkil qilinadi.

Dual tizimni tashkil etishda ta'lim jarayonini moliyalashtirish masalasi alohida o'rin egallaydi. Bu o'rinda korxonada unga zarur bo'lgan mutaxassis- larni endi qidirib yoki ularni tayyorlash uchun alohida kurslarni tashkil qilish uchun mablag' sarflamaydi, uning buyurtmasiga binoan Universitet korxonaga zarur yo'nalishlarda zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlab beradi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va dual texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish mamlakatimizning xalq xo'jali gini rivojlantirishga zarur raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassis kadrlarlarni tayyorlab berishda Universitet o'zining munosib hissasini qo'shadi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://spravochnick.ru/pedagogika/teoriya_obucheniya/praktiko — Kasbga yo'naltirilgan ta'lim.